

SUVDAN OQILONA FOYDALANISH: MUAMO VA YECHIM

Omonova Sevinch Oybek qizi

Jizzax viloyati G'allaorol tumani 47- umumiy
orta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi.

Email:malikashobotayev@gamil.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7115251>

Annotatsiya :Suvni xalqimiz obi hayot deya ulug'laydilar. Suv bor joyda hayot bor. U tufayli qora tuproq gulchechakka, mevali bo'glarga aylanadi. Lekin mamlakatimiz yopiq zonada joylashganligi uchun suv resurslari bnotekis joylashgan hisoblanadi Buning natijasida mamlakatimizda suv resurslari tanqis. Bizdan talab qilinayotgan narsa, esa undan oqilona foydalanish. Suvdan oqilona foydalanishimiz bir qancha muamolarni hal qiladi, demak biz iste'molga yaroqsiz suvlardan ham foydalanish yo'llarini topishimiz maqsadga muofiq. Zero, suvni e'zozlamoq kelajakni asramoq demakdir .

Kalit so'zlar : suv zaxiralari, suv tanqisligi boyicha olim holatlari , qadimgi davlatlarda suv boshqaruvchilari, tomchilatib su'gorish , suv quvurlari, yer usti suvlar , yer osti suvlar , suvlar .

Kirish. Suv tiriklikning asosidir. Sharq falsafasida, jumladan alloma al-Farobiy asarlarida ham borliqdagi to'rtta unsur tuproq, havo, suv, olov muqaddas sanalagan.

Kishi umri davomida o'rtacha 75 tonna suv iste'mol qiladi . Katta yoshdagi kishi jismining 82 foizini, olti haftalik embrioning 95,5 foizini yangj tug'ilgan chaqolaqning ham organizmining asosiy qismini suv tashkil etadi.

Yer yuzidagi biror tirik organizm suvsiz yasholmaydi. Chunki, undahi to'qimalarnig asosiy qismini suv tashkil qiladi .Odam tanasidagi suvning 70 foizi hujayra protoplazmasida, 23 foizi to'qimalar aro suyuqlikni, 7 foizi qon plazmasida mavjud. Organizmimizdagi suvning 20-25 foiz kamayishi insonni halok qiladi . Bundan ko'rinib turibdiki , suv hayot manbayi ekan .

Jahonda jumladan, mamlakatimizda ham suv zahiralari inson iste'moli uchun yetarlimi?

Sayyoramizning 4dan 5 qismi, aniqrogi, 79 foizi suv bilan qoplangan bo'lsa ham, uning 6 foizgina chuchuk suv, uning ham 2 foizidan ortigi is'temol uchun yaroqli, xolos. Yaroqli suvning ham 70 foizi tabiatda muz holatda uchraydi.

Hozirgi kunda dunyo boyicha har 6 kishidan biri -toza ichimlik suv taqchil hududlarda istiqomat qilmoqda . Jahon So'g'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotlarga ko'ra , jamiki kasalliklarning 85 foizi bevosita suv bilan bog'liq . Har yili dunyo boyicha 25 million kishi aynan toza ichimlik suvi yetmasligi oqibatida vafot etgan . Har soniyada bir bola asosan noqulay sanitariya sharoiti

va ifloslangan suv tufayli paydo b'olgan kasalliklardan vafot etayabdi . Tahminlarga k'ora , 2015 yilga borib , dunyo aholisining 40 foizi ichimlik suvi muamosidan aziyat chekadi .

Suv zaxirasi yil davomida bir kishiga 1700 kub metrdan kam b'olsa , suv tanqisligi o'rtada darajadagi deb hisoblanadi . 1000 kub metrdan kam b'olsa , suv tanqisligi yuqori darajaga yetgan hisoblanadi .

Respublikamizda bu k'orsatgich 1960 yilda 3670 kub metrni tashkil etgan . 2000yilfa kelib bu k'orsatgich 1960 kub metrga tushib qolgan . Hozirgi kunda bu o'rtacha suv tanqisligi darajasidan sal yuqori . Lekin ichimlik suvi zaxirasi 40 yilda qariyb ikki hissa kamaygan . 2025 yilga borib , bizda aholi 25 millionga yetishi kutilmoqda . Suv esa k'omaymasligi aniq . Faqat shu narsaning o'zigina suvni e'zozlash , uni tejash , unga munosabatimizni tubdan o'zgartishni talab etadi .

Asosiy qism . Qadimdan xabarimiz borki Buxoro amirligi , Xiva va Q'og'on xonligida har bir ariq u kanallar uchun miroblar tayinlangan . Ular suvdan oqilona foysalanish uchun nazoratni kuchaytirgan xolatda ish yuritgan . K'orishimiz mumkin ki xalqimiz azal -azaldan muqaddas hisoblab bulog' u quduqlarni asrab- avaylashgan...

Suvdan foydalanish sohasida davlat bishqariv O'zbekoston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mahalliy davlat davlat hokimiyati orgablari , shuningdek suvdan foydalanishni bevosita yoki havza (hududiy) boshqaruv organlari hamda boshqa davlat organlari tomonidan amlga oshiriladi

Hozirgi kunda ham shundaymi ?

Demak hozirgi kunda davlatimiz tomonidan suvdan oqilona foydalanishning turli xil y'ollari asta -sekinlik bilan yutimiz b'oylab joriy qilinmoqda . Bulardan biri „ Tomchilatib suqorish “ desak mubolaqa b'olmaydi . S'ongi ikki yilda qishloq qishloq x'ojaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratildi .

Davlat tomonidan q'ollab - quvvatlashi natijasida 2020 -yilning o'zida q'oshimcha 133ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi .

2021-yilda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni q'ollab - quvvatlash uchun 1,5 trln s'om subsidiya mablag'lari ajratish haqida qaror qabul qilindi .

Bu uluqv'or ishlarni amalga oshirish , avvalo qonun ijodkorligi ya'ni uning huquqiy asoslarini yaratish va ularning ijrosi bilan boqliq .

Yer osti suvlari -yer sathidan pastda yer qobiq'ining toq' jinslari qatlamlarida joylashgan suvlar .

Yer usti suvlar – yer qoboğining ustida joylashgan suvlar hisoblanadi .

Suvlar – suv obyektlari tóplangan barcha suvlar majmui.

Suv iste'moli (suvni iste'mol qilish) – yuridikva jismoniy shaxslar tomonidan óz ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslardan ularni suv obyektidan belgilangan tartibda olgan holda foydalanish .

Suv xójaligi obyekti – suv resurslarini tóplash , boshqarish yetkazib berish , ulardan foydalanish ularni iste'mol qilsh ajratib berish va muhofaza qilish maqsadida suv xójaligi faoliyati amalga oshirladigan suv obyekti .

Keyingi yillarda O'zbekiston aholisini markazlashgan tartibda quvurlar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda . Shu maqsada 1990 -1994 yillar davomida 13,5 ming km suv quvurlari tortildi . 1990- yilda shahar aholisining 81 foizi va qishloq aholising 52 foizi markazlashgan tartibda ichimlik suvi bilan ta'minlangan bólsa , bu kórsatkich 1994-yil shaharliklar uchun 84 foiz va qishloq ahli uchun 58,5 foizni tashkil etadi . Uzunligi 210 km.ni tashkil qilgan Damxója- Buxoro suv quvurining ishga tushirilishi Zarafshon vohasining quyi qismida yashayotgan xalqni sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash muamosini birmuncha hal qildi . Yer osti suvlarining foydalanishga qolayotgan zaxirasi mavjudligi kelajakdan xalqning toza ichimlik suviga bólgan talabini qondirish uchun muhim rolni ótaydi.

Yevropa mamlakatlarida mahalliy holatda tashkil etilgan suv quvurlarida ikta jumrak bólar ekan . Biri aholi iste'mol qilishi uchun , ikkinchisi suv va ekinlarni suğorish hamda shunga óxshash ishlar uchun ishlatiladi . Bizda esa iste'mol uchun ham, suvdan foydalanilayotgan barcha ishlar uchun bitta quvur va bitta jumrakdan foydalaniladi . Bu esa aholi iste'moli uchun ham, hamda toza ichimlik suvini isrof qilishga olib keladi . Mening taklifim bizning mamlakatlarda ham ikta jumrakli quvurlar tashkil qilinsa , maqsadga muofiq bólar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Ózbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 -yil 11-dekabrdagi PQ4919 qarori bayonidan .
- 2 Statistik ma'lumotlar tóplamidan .
- 3 Odam va uning salomatligi 8-sinf . B.Aminov , T. Tilovov , O.Movlonov . Tóldirilgan va qayta ishlangan 5- nashr. 2014-yil.
- 4 Internet manbalaridan foydalanilgan .
- 5 Biologiya , Sitalogiya va Genetika asoslari 9-sinf . A. Zikriyayev, A. Tòxtayev , I. Azimov , N Sonin . Tóldirilgan va qayta ishlangan 5-nashr . 2019-yil.
- 6 Ózbekiston Respublikasining 2009-yil 25 dekabrdagi O'RQ-240 sonli qarori tahriridan O'RQHT , 2009 -yil 52 -son 555-modda .